

“KELISHILDI”

O‘zbekiston Respublikasi

Raqobatni rivojlaltirish va iste’molchilar
huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining
Qashqadaryo viloyati hududiy boshqarmasi
boshlig‘i

S.Sadikov

2025 yil.

“TASDIQLAYMAN”

“Yagona boshqaruv kompaniya” MCHJ
direktori

O.A.Omonov

2025 yil.

**I-guruh iste’molchilariga ichimlik va oqova
suv xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha
NAMUNAVIY SHARTNOMA**

2025 yil. “ ”

-son

Nuriston shaharchasi

Ushbu shartnomani “Yagona boshqaruv kompaniyasi” MCHJ, keyingi o‘rinlarda
“Ta’minotchi” deb yuritiluvchi, nizom asosida faoliyat yurituvchi _____
shaxsida bir tomondan, hamda keyingi o‘rinlarda “Iste’molchi” deb yuritiluvchi
_____ asosida ish olib
boruvchi _____, ikkinchi tomondan
quyidagilar haqida tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1. Taraflar ushbu shartnomaning ichimlik va oqova suvini chiqarish bo‘yicha
shartlarini bajarish, O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga, O‘zbekiston
Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-sonli qarori 2- ilovasi bilan
tasdiqlangan. “Iste’molchilarga suv ta’minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko‘rsatish
Qoidalariga”ga (keyinchalik matnda - Qoidalar deb yuritiladi) rioya qilish majburiyatini o‘z
zimmasiga oladilar

1.2. 2025-yil uchun ichimlik suv yetkazish hajmi ushbu shartnomaga muvofiq aholi
(bundan buyon matnda I-guruh iste’molchilari deb yuritiladi) uchun ichimlik suv yetkazish va
oqova xizmatini ko‘rsatish:

1m3 ichimlik suv uchun QQS bilan _____ so‘m, o‘rtacha bir oylik ichimlik
suv miqdori _____ m3, umumiy ichimlik suv
miqdori _____ m3* _____ so‘m= _____ so‘m. (+QQS 12%)

1m3 oqova suv uchun QQS bilan _____ so‘m, o‘rtacha bir oylik oqova suv miqdori
_____ m3, umumiy oqova suv miqdori _____ m3* _____ so‘m= _____
so‘m. (+QQS 12%)

Shu tariqa shartnomaning umumiy qiymati so‘mni tashkil qildi.
(_____) (+QQS 12%) so‘m to‘lanishi
ko‘zda tutilgan

1.3. Iste’molchilarga (subiste’molchilarga) suv berish va ulardan oqova suvlarni qabul
qilish faqat Ta’minotchi bilan iste’molchi (subiste’molchi) o‘rtasida tuzilgan shartnoma
mavjud bo‘lgandagina amalga oshiriladi. Ta’minotchi bilan iste’molchi (subiste’molchi)
o‘rtasida tuzilgan shartnoma ushbu Qoidalariga muvofiq tuzilgan bo‘lishi, tomonlarning barcha
huquq, vazifa va majburiyatlarini aks ettirishi kerak.

1.4. “Iste’molchi” o‘rnatilgan muddatlar ichida “Ta’minotchi”ga ko‘rsatilgan suv
ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish
majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

I guruh iste’molchisi shartnoma tuzish uchun Ta’minotchiga quyidagi hujjatlarni taqdim
etishi shart:

turar joy egasi pasportining nusxasi;
mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari;
ulanish uchun yangi qurilgan turar joyning loyiha (texnik) hujjati.

Hisobga olish asboblari bilan ta'minlanmagan iste'molchilar tomonidan sarflangan suv hajmini aniqlash uchun zarur bo'lgan doimiy va vaqtinchalik istiqomat qiluvchilar soni haqidagi ma'lumotlar Ta'minotchi tomonidan iste'molchining yashash joyi bo'yicha ichki ishlar organlaridan mustaqil ravishda so'rab olinadi.

II. Umumiy qoidalar

2.1. Ichimlik suvi bilan ekinlarni sug'orish, hovlilar, piyodalar yo'lakchalariga qoidada ko'rsatilgan (o'rnatilgan, soat 00-00 dan soat 05-00 gacha) vaqtdan tashqari suv sepih qat'yan man etiladi.

Dov-daraxtlar rasmiy ruxsatsiz yoki ko'rsatilgan vaqtdan boshqa vaqtda sug'orilgan holatlarda, bir oyda foydalanilgan suv uchun to'lov — I guruh iste'molchilari uchun ushbu Qoidalar 87-bandining «a» kichik bandi bo'yicha, hisoblanadi.

2.2. Kommunal suv ta'minoti tizimlaridagi ichimlik suv iste'molchi (subiste'molchi)larning iste'mol va kommunal-maishiy ehtiyojlari, yong'inlarni o'chirish, shuningdek ichimlik suvdan foydalanish talab etiladigan texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari uchun mo'ljallangan.

2.3. Suv hisoblagichlar: ushbu turdagi ishlarni olib borish uchun «O'zstandart» agentligida akkreditatsiyadan o'tgan tegishli organlar tomonidan tekshirilgan va plombalangan bo'lishi;

suvni hisobga olish asbobi pasportida tekshirish sertifikat, metrologik attestatsiyadan o'tgazilganlik to'g'risidagi qaydlar bo'lishi lozim.

2.4. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflar o'zgarganda, sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.

III. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlarida ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini hisobga olish

3.1. Iste'molchi tomonidan keyingi ko'rsatkichlar taqdim etilgan yoki Ta'minotchi vakili tomonidan suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlari nazorat uchun olinib, qayd qilingan taqdirda Ta'minotchi ishlatilgan ichimlik suv va chiqarilgan oqova suv hajmini o'rtacha sutkalik sarf hisobida, suvni hisobga olish asbobining avvalgi qayd qilingan ko'rsatkichi davridan boshlab qayta hisob-kitob qilishi lozim. Bunda to'lovlar qayta hisob-kitob qilinayotgan oydagi tariflar asosida hisoblab chiqiladi.

3.2. Ta'minotchi vakili tomonidan suvni hisobga olish asbobining ishlamayotganligi aniqlansa yoki uning ish tartibiga ruxsatsiz aralashilgan yoki plombalari uzilgan bo'lsa, ushbu holatga aniqlik kiritilgan holda dalolatnoma tuziladi hamda Ta'minotchi tomonidan iste'molchiga (subiste'molchiga) suvni hisobga olish asbobini 30 kun mobaynida navbatdan tashqari tekshiruvdan o'tkazishga ko'rsatma beradi. Muddat ko'rsatma taqdim etilgan sanadan boshlab hisobga olinadi.

Berilgan ko'rsatma 30 kun muddatda bajarilmagan taqdirda I guruh iste'molchilari to'lovlarni ushbu Qoidalar 87-bandining «a» kichik bandiga ko'ra amalga oshiradilar va bu holat suvni hisobga olish asbobidagi kamchiliklar bartaraf etilmaguncha yoki yangi suvni hisobga olish asbobi o'rnatilmaguncha davom etadi.

3.3. Sovuq suvni hisobga olishning maqbul usullari va o'lchash vositalarini tanlash, suvni hisobga olish asboblarini nazoratdan o'tkazish ishlari normativ hujjatlarga muvofiq

amalga oshirilishi kerak. Suv o'lhagichdan foydalanishning belgilangan chegarali tekshirishlararo muddati tugaganda yoki uning haqiqiy holati bo'yicha tekshiruv o'tkazishning imkoniyati bo'lmaganda Ta'minotchiga yoki ushbu asbobni ta'mirlash va tekshirish ishlari uchun ruxsatnomasi bor, akkreditatsiyadan o'tgan tegishli organlar xulosasiga ko'ra uni almashtirish chora-tadbirlari ko'riladi.

3.4. Markazlashgan issiq suv ta'minoti mavjud xonadonlardan chiqadigan oqova suv miqdori iste'molchilari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlangan qaror bilan belgilangan koeffitsiyentiga ko'ra (2 koeffitsiyentdan oshmagan holda) mahalliy sharoitlardan kelib chiqib belgilanadi.

VI. Ichimlik va oqova suv uchun ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob qilish va to'lov tartibi

4.1. Barcha guruh iste'molchilari keyingi oy uchun har oyning 10-sanasiga qadar 100 foiz oldindan haq to'lovlarini amalga oshirmasalar, ta'minotchi iste'molchilarni yozma ravishda xabardor qilgan paytdan boshlab besh ish kuni o'tgandan keyin qarzlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iste'molchilarni ichimlik suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati tarmoqlaridan uzib qo'yish yo'li bilan undirish choralarini ko'radi.

4.2. Fuqarolar ruyxatidan o'tkazilmagan xonadonlarda, suv o'lhagichlar mavjud bo'lmaganda, ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlar qonunchilikda ko'rsatilgan iste'mol normalariga ko'ra, belgilangan ta'riflarning orttiriluvchi koeffitsiyentini qo'llash yo'li bilan: bir va ikki xonali uylarda – bir kishi hisobidan: uch xonali uylarda ikki kishi hisobidan: to'rt xonali uylarda – uch kishi hisobidan: besh xonali uylarda-to'rt kishi hisobidan va undan ortiq xonali uylarda shu tartibda amalga oshiriladi.

4.3. Ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflar o'zgarganda, sanasidan qat'i nazar, ushbu xizmatlar yuzasidan iste'molchi bilan tuzilgan shartnoma o'z kuchini saqlab qoladi va iste'molchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun, yangi tariflar asosida, ular kiritilgan sanadan e'tiboran to'lovlarni amalga oshirishi shart.

4.4. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun to'lovlar "Iste'molchi" ning tanlovi bo'yicha cheklanmagan ravishda, naqd yoki pul o'tkazish (to'lov hujjati yoki to'lov topshiriqnomasi bo'yicha) orqali pul mablag'lari bilan shuningdek plastik kartochkalardan yoki elektron to'lov tizimlari orqali pul o'tkazish yo'li bilan ham amalga oshiriladi.

4.5. Iste'molchilari avans tariqasida kommunal xizmatlar uchun 2 oydan ko'p bo'lmagan muddatga to'lovlarni avvaldan amalga oshirib qo'ygan bo'lsalar, ular shu vaqt mobaynida tariflarning o'zgarishi tufayli to'lanadigan qo'shimcha to'lovlardan ozod etiladilar.

4.6. Suv hisobga olish asbobi mavjud bo'lmagan holatlarda suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlarida ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitoblar quyidagicha amalga oshiriladi:

I guruh iste'molchilari bilan — mazkur Qoidalar 87-bandining «a» kichik bandi bo'yicha, I guruh iste'molchilari uchun belgilangan tariflarga qonunchilikda belgilangan orttiriluvchi koeffitsiyentni qo'llash yo'li bilan;

4.7. Obekt egasi avtonom suv ta'minoti (quduq, ochiq suv olish havzasi, irrigatsiya tizimi)ga va (yoki) markaziy kommunal oqova tizimidan boshqa oqova tashlash manbalariga ega bo'lgan holatlarda, Ta'minotchi bilan shartnoma tuzish uchun maxsus tabiiy suv obektlaridan maxsus suv olish yoki iste'mol qilish uchun ruxsatnomani qo'shimcha ravishda taqdim etishi zarur.

4.8. Suv ta'minotining xususiy avtonom manbai (artezian skvajinasi, quduq, ochiq suv havzasi, irrigatsiya tizimi va h.k.) mavjud bo'lganda kanalizatsiya tizimiga oqovalarni oqizish uchun to'lovlar, o'rnatilgan nasosning ishlab chiqarish quvvati yoki o'rnatilgan va ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblash asbobining ko'rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. Iste'molchiga qarashli bo'lgan avtonom suv ta'minoti manbaining ichki tizimi markaziy suv ta'minoti tizimi

bilan tutashmagan bo'lishi kerak.

V. Taraflarning huquqlari, javobgarligi va majburiyatlari

“Iste'molchi”;

5.1 Ta'minotchidan, uning bilan tuzilgan shartnoma asosida, ichimlik suv va oqova suvni chiqarish xizmatlarining uzluksiz amalga oshirilishini, o'z hayoti va sog'lig'iga, mulkiga xavf tug'dirmaydigan darajadagi sifat va miqdorda ichimlik suv berilishini talab qilish;

Ta'minotchidan suvni hisobga olish asboblari o'rnatish, ularni belgilangan tartibda va muddatlarda nazoratdan o'tkazishni talab qilish;

tegishli sifat darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarmaganligi uchun ISKX tashkilotidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdorda jarima (penya)lar to'lashni talab qilish;

Ta'minotchini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

ta'minotchidan ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifatda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida ISKX tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

«Sanitariya-epidemiologiya xizmati» organlari tomonidan tasdiqlangan amaldagi standartlarga javob beradigan sifatli ichimlik suv bilan ta'minlanmaganlik (sifatsiz ichimlik suv mavjudligi aniqlangan davrdan u tegishli darajaga olib kelingan vaqt) uchun qayta hisob-kitob amalga oshirilishini talab qilish.

5.2. Suv quvuriga o'zboshimchalik bilan ulangan, sovuq suvni hisobga olish asboblari buzilishiga ataylab yo'l qo'ygan, shuningdek ko'rsatkichlarni o'zgartirish maqsadida hisobga olish asboblari tashqaridan aralashgan iste'molchilar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar

5.3. Iste'molchi suvni hisobga olish asbobidagi plombaga shikast yetgani, uzilgani yoki butun emasligi kabi holatlarni aniqlaganda, 2 sutka mobaynida Ta'minotchini bu haqda ogohlantirishi lozim.

Suvni hisobga olish asbobi ishdan chiqqanligi to'g'risida ogohlantirilmagan holatlarda I guruh iste'molchilari sarflangan sovuq suv uchun ushbu Qoidalar 87-bandining «a» kichik bandi bo'yicha suvni hisobga olish asbobi tekshirilganligi to'g'risida tuzilgan so'nggi dalolatnoma sanasidan boshlab asbob ishidagi nosozliklar bartaraf etilgan yoki yangisi o'rnatilgan sanagacha bo'lgan muddat hisobidan to'lovlarni amalga oshiradilar.

5.4. “Iste'molchi” kommunal drenaj tizimi mavjud bo'lgan holatlarda iste'molchi hududida joylashgan kommunal kanalizatsiya tarmoqlariga yomg'ir va erigan qor suvlarining ruxsat etilmagan holda oqizilishiga yo'l qo'ymaslik. Mazkur huquqbuzarlik aniqlangan taqdirda Ta'minotchi vakili, belgilangan tartibda, iste'molchiga nisbatan javobgarlik choralari belgilash uchun asos bo'ladigan dalolatnomani tuzadi;

5.5. “Iste'molchi”larga suv ta'minoti xodimlar xizmati guvohnomasini taqdim etgach hududdagi suvni hisobga olish uskunalari va tarmoqlarini haftaning barcha kunlarida soat 07:00 dan soat 21:00 gacha qarshiliklarsiz ko'rsatilishini ta'minlashi shart.

5.6. Iste'molchi uyida vaqtincha istiqomat qiluvchi (yollovchi)lar istiqomat qilganda

to'lovlar haqiqatda istiqomat qilayotganlar soniga qarab amalga oshiriladi. Iste'molchi, o'zi yashayotgan xonadonda turuvchilar soni ko'payishi (shu jumladan, vaqtinchalik yashayotganlar hisobiga hamda Qoidalarining 87-bandi «a» kichik bandida nazarda tutilgan ko'rsatkichlar bo'yicha) yoki kamayishi holatlari yuzasidan, o'zgarishlar sodir bo'lgan vaqtdan boshlab 5 ish kunidan kechikmay Ta'minotchini yozma ravishda ogohlantirishi lozim.

5.7. Ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimidan ilgari uzib qo'yilgan (o'zboshimchalik bilan ulanish, qarzdorlik mavjud bo'lganda yoki shartnoma shartlari bajarilmaganda) shaxslarni qayta ulashda Iste'molchilaridan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida, to'lov qayta ulashni amalga oshirgan tashkilot hisobiga mablag'larni o'tkazish orqali 3 kundan kechiktirmay tarmoqqa qayta ulanadi.

5.8. Joriy oyning 23-25-sanasida suv hisoblagich ko'rsatkichlarini to'g'ri va o'z vaqtida qayd qilib borishi, joriy oyning so'nggi sanasigacha ko'rsatkich-ma'lumotlarni bevosita yoki aloqa vositalari yordamida taqdim etish va to'lovlarni amalga oshirish;

“Ta'minotchi”

5.9. Ta'minotchi, iste'molchini 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

iste'molchiga tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqarsiz bo'lganda va Ta'minotchi vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha Ta'minotchi talablari iste'molchi tomonidan bajarilmaganda

Ta'minotchi mansabdor shaxsi iste'molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va Ta'minotchi naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste'molchi tomonidan asossiz ravishda kiritilmaganda;

Ta'minotchi tomonidan iste'molchi ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari va qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek yangi abonentlarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

iste'molchi tasarrufida bo'lgan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'zboshimchalik bilan ulangani aniqlanganda;

iste'molchi tomonidan suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarish xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

iste'molchining tasarrufida bo'lgan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlariga, qurilmalariga Ta'minotchi tomonidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan subabonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda

iste'molchi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlar miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga rioya qilmaganda.

5.10. Ta'minotchi quyidagilar yuzasidan javob beradi:

a) Iste'molchini meyoriy-huquqiy va boshqa xo'jjatlarga hamda mazkur shartnomaga muvofiq ichimlik suv bilan ta'minlash, oqova suvlarni chiqarish;

b) Iste'molchiga meyoriy-xukukiy va boshqa xo'jjatlar hamda qonunchilik asoslari va shartnomada ko'rsatilgan talablarga muvofik sifatli ichimlik suv yetkazib berish;

v) Iste'molchiga ichimlik suv ta'minoti va oqova suv tizimlariga ulanish uchun o'z vaqtida, qonuniy asoslangan texnik shartlarni taqdim etish;

g) suvni hisobga olish individual asboblari o'z vaqtida davlat nazoratidan o'tkazish, belgilangan muddatlarda Iste'molchidagi suvni hisobga olish asboblarning yechib olinishi, o'rnatilishi, ko'rsatkichlari nazorat kilinishi va tekshiruv o'tkazilishi haqida ogohlantirish;

d) Iste'molchining mulkiga yetkazilgan moddiy zarar uchun qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda javob berish;

ye) shartnoma shartlari va o'ziga yuklangan majburiyatlarni bajarmaganlik.

5.11. Ta'minotchi Iste'molchini suv bilan ta'minlashda quyidagi sabablarga ko'ra o'z ilishlar bo'lganligi uchun javob bermaydi:

a) Qoidalarining 129-bandida sanab o'tilgan sabablarga ko'ra suv berish to'liq yoki qisman to'xtaganda;

b) Iste'molchining aybiga ko'ra.

5.13. Ta'minotchi suvni hisobga olish asbobining o'z vaqtida nazoratdan o'tkazilishi uchun iste'molchiga oldindan xabar berish, uni yechish, o'rnatish, ko'rsatkichlarini nazorat qilish yuzasidan mas'ul hisoblanadi.

Suvni hisobga olish asbobini tekshirish (ta'mirlash) muddati uning yechilgan vaqtidan boshlab plombalanib, qayta qo'yilgungacha 30 kalendar kundan oshmasligi kerak.

Sovuq suvni hisobga olish asbobini tekshirish yoki ta'mirlash muddati davomida barcha guruh iste'molchilari asbob yechilganidan keyingi 30 kalendar kun mobaynida to'lovlarni oldingi uch oydagi ko'rsatkichlarning o'rtacha sutkalik hisobidan kelib chiqqan holda amalga oshiradilar.

5.14. Ta'minotchining majburiyatlari:

a) suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

b) ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

v) suv ta'minoti uzluksizligini ta'minlash (Iste'molchi bilan kelishilgan grafik asosida suv berish holatlaridan tashqari);

g) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muxofaza qilish davlat qo'mitasi organlari tomonidan tasdiqlangan meyoriy xujjatlar (PDS) talabi va ichimlik suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomalariga muvofiq oqova suvlarni tozalash ishlarini tashkil qilishni ta'minlash;

d) tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

ye) Iste'molchining kommunal suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish tizimlariga ulangan ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkillashtirishda Iste'molchiga amaliy yordam ko'rsatish;

yo) Iste'molchidagi suvning behuda oqib ketishi va oqilona foydalanilmayotganlik holatlarini aniqlash, suv berish va undan foydalanishni qat'iy nazorat qilish va hisobga olish;

j) Iste'molchiga suvni hisobga olish individual asboblarini o'rnatish, belgilangan tartib va muddatlarda ularni nazoratdan o'tkazib turish;

z) kommunal ichimlik suv va kanalizatsiya tarmoqlarida, inshootlar va qurilmalarda naryadsiz hamda Ta'minotchining xizmat guvoxnomasisiz biror-bir ish olib borayotgan shaxslar haqida ichki ishlar organlari xodimlariga xabar qilish;

i) shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda Iste'molchiga penya tulash;

y) Iste'molchining shartnoma shartlariga rioya etmagani masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

k) ichimlik suv va kanalizatsiya tizimida ro'y bergan buzilishlar aniqlangan kundan boshlab bir sutka mobaynida ularning sabablari, xizmat ko'rsatishdagi to'xtalish muddatlari va cheklanishlar, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmat sifatlarining o'zgarishi sabablari haqida Iste'molchiga axborot berish;

l) ichimlik suv va kanalizatsiya xizmatlarini ko'rsatishda ruy berishi mumkin bo'lgan rejali to'shtalish va o'z ilishlar haqida Iste'molchini uzilishlar boshlangungacha 10 ish kunidan kechikmay ogohlantirish;

m) ichimlik suvni iste'mol qilishga doir amaldagi va yangi joriy qilingan meyoriy-xukukiy va boshka xujjatlar bilan Iste'molchini aloqa vositalari (telefon, elektron pochta) orqali xabardor qilish;

n) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari tariflaridagi o'zgarishlar

haqida ular amalda joriy qilinishidan 15 kun avval ommaviy axborot vositalari yoki boshqa aloqa vositalari (Ta'minotchining ijtimoiy tarmoqdagi saxifalari, rasmiy sayti) yordamida Iste'molchini xabardor qilish;

o) ichimlik suv ta'minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'kligi hakidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish.

VI. Alohida shartlar

6.1. Iste'molchining aybi bilan suvni hisobga olish asbobidagi plomba uzilgani aniqlanganda va bu haqda ikki tomonlama dalolatnoma tuzilib, tasdiqlangan bo'lsa, asbob akkreditatsiyalangan organlar (metrologik xizmatlar)ga navbatdan tashqari tekshirishga yuboriladi. Tekshirish davomida suvni hisobga olish asbobining nosozligi aniqlansa, asbob akkreditatsiyalangan organlar (metrologik xizmatlar)ga ta'mirlash uchun jo'natiladi. Ta'mirdan so'ng asbob talablarga javob bermasa va ta'mir uchun yaroqsiz deb topilsa yangisi o'rnatiladi.

6.2. Suv hisoblagichdan foydalanishning cheklangan muddati tugashidan kamida 30 kalendar kun avval "Ta'minotchi" "Iste'molchi" ga shartnomada ko'rsatilgan tartibda (pochta orqali, shaxsan, elektron pochta vositasida, ijtimoiy tarmoqlar yordamida va hakozo) ogohlantirish xati jo'natadi. Unda suvni hisobga olish asbobidan foydalanish muddati tugayotganligi qayd etiladi, iste'molchi uchrashishi kerak bo'lgan shaxs, manzil telefon raqami va elektron manzili ko'rsatiladi. "Iste'molchi" uzrli sababga ko'ra (xizmat safarida kasalxonada bo'lish) o'z vaqtida suvni hisobga olish uskunani nazoratdan o'tkaza olmagan hollarda (tegishli hujjatlar taqdim etilganda) ogohlantirish xati berilgan kundan keyingi muddat uzrli sabab ko'rsatilgan muddatga uzaytiriladi.

6.3. Suv o'lchash uzeli Ta'minotchi tomonidan plombalanishi lozim. Plombalanmagan hisoblash asboblari o'rnatish va ulardan foydalanish taqiqlanadi.

Suvni hisobga olish asbobiga o'rnatilgan plombani yechish iste'molchining murojaatiga asosan Ta'minotchi tomonidan amalga oshiriladi va bu haqda dalolatnoma tuziladi.

6.4. I guruh iste'molchilari uchun qurish yoki rekonstruksiya qilish davrida, turar joyga (yer uchastkasiga) egalik huquqi boshlangan vaqtdan boshlab 1 oy muddatda o'rnatish majburiy bo'lganda, suv ta'minoti va (yoki) oqova suvni chiqarish xizmatlari uchun to'lovlarni hisoblash suvni hisobga olish asbobi ko'rsatkichlariga muvofiq amalga oshiriladi. Suvni hisobga olish asbobi bo'lmagan yoki u 1 oy muddatda o'rnatilmagan holatlarda suv ta'minoti (oqova suvni chiqarish) uchun to'lovlar mazkur Qoidalar 87-bandining «b» kichik bandiga muvofiq ichimlik suv tarmog'ining o'tkazish quvvatiga ko'ra amalga oshiriladi.

VII. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. I guruh iste'molchisining Ta'minotchi qaroriga rozi bo'lmasligi uni qo'shimcha to'lov hujjati bo'yicha to'lovni belgilangan muddatda to'lash majburiyatidan ozod etmaydi. Qo'shimcha to'lov hujjati 10 kun muddatda to'lanmagan taqdirda Ta'minotchi taqdim etilgan summani majburiy tartibda undirish yuzasidan sudga da'vo arizasi kiritadi.

VIII. Fors – major

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch (fors major) holatlari (zilzila, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar) natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar ushbu shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib

ravishda uzaytiriladi.

8.2. Fors-major holati mavjud bo'lgan tomon 3 kun ichida boshqa tomonni fors-major holati boshlangan muddatlarni ko'rsatgan holda yozma ravishda aloqa vositalari (telefon raqami, ijtimoiy tarmoqlar profillar va rasmiy sahifalar) orqali ogohlantirishi lozim.

8.3. Agar fors-major holatlari shartnoma shartlarini bajarishga uch oydan ko'p muddat to'sqinlik qilsa, tomonlardan biri shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

IX. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikki tarafda bir nusxadan saqlanadi

9.2. Shartnoma 2025-yil 01-yanvardan 5 yil muddat davomida haqiqiy hisoblanadi.

Zarur holatlarda shartnoma uzaytirilishi ham mumkin, bunda tomonlardan biri shartnomaning amal qilish muddatini vaqtidan avval tuxtatmagan, "Iste'molchi" shartnoma muddatini tugashidan 15 kun avval "Ta'minotchi"ni ogohlantirgan va shu vaqtgacha ichimlik suvini yetkazib berish va kanalizatsiya xizmatlari haqini to'liq to'lab qo'ygan bo'lishi lozim.

X. Taraflarning yuridik manzili va bank rekvizitlari:

"Ta'minotchi"	"Iste'molchi"
"Yagona boshqaruv kompaniyasi" MCHJ	Nomi :
x/r: 202800907197281001	x/r :
MFO:00083	MFO :
INN: 311876201	INN :
Bank: Andijon sh. Chet el kapitali ishtirokidagi "Hamkorbank" AT bankining bosh ofisi	Bank :
Manzil: Nuriston shaxarchasi	Manzil :
Telefon raqam:	Telefon raqam :
O. Omonov	Raxbar :
" " 2025 yil.	" " 2025 yil.

Yuridik xulosa:

Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fukarorlik kodeksi va "Hujalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida" gi qonuni talablariga muvofik tuzilgan.

Yuriskonsult: